

TA’LIM JARAYONIDA TALABALARING KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta’lim jarayonida talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning muhim yo‘llari bayon etilgan. Ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlar zamirida ham kommunikativ kompetentlik juda muhum ekanligi o‘z aksini topmoqda. Bugungi kun talablariga mos raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash zamon talabiga aylanib bormoqda. Maqolada kommunikativ kompetentlik tushunchasining mazmun mohiyati haqida fikrlar keltirilgan. Kompetentlikka nafaqat talabalar balki o‘qituvchilar ham ega bo‘lishlari haqida fikrlar keltirilgan. Chunki ta’lim-tarbiya jarayonini tizimli tashkil etish o‘quvchilar va talabalar uchun muhum hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: kompetentlik, kommunikativ kompetentlik, ta’lim-tarbiya jarayoni, talabalar faoliyati, kompetensiya, kasbiy kompetentlik, pedagogik kompetentlik, ta’lim samaradorligi, raqobatbardosh kadrlar, og‘zaki nutq, adabiy til me‘yorlari, dunyoqarashini kengaytish, ta’lim tizimi, qobiliyat, olyi ta’lim tizimi, pedagogik faoliyat, layoqat, bilim.

МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ УЧАЩИХСЯ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

Аннотация. В данной статье описаны важные пути развития коммуникативной компетентности учащихся в процессе обучения. Даже в свете проводимых реформ в системе образования отражается, что коммуникативная компетентность очень важна. Подготовка конкурентоспособного персонала, соответствующего сегодняшним требованиям, становится требованием времени. В статье даны представления о содержательной природе понятия коммуникативная компетентность. Высказываются мнения, что компетентностью обладают не только ученики, но и учителя. Поэтому что системная организация учебно-воспитательного процесса имеет важное значение для учащихся и учащихся.

Ключевые слова: компетентность, коммуникативная компетентность, учебно-воспитательный процесс, деятельность учащихся, компетентность, профессиональная компетентность, педагогическая компетентность, эффективность обучения, конкурентоспособность кадров, устная речь, нормы литературного языка, расширение кругозора, система образования, способности, система высшего образования, педагогическая деятельность, компетентность, знания.

METHODOLOGY FOR THE DEVELOPMENT OF COMMUNICATIVE COMPETENCE OF STUDENTS IN THE EDUCATIONAL PROCESS

Annotation. This article describes important ways to develop communicative competence of students in the educational process. It is also reflected that communicative competence is very important in the Zamiri of reforms in the educational system. The training of competitive personnel in accordance with the requirements of today is becoming a requirement of the Times. The article presents ideas about the essence of the concept of communicative competence. It has been suggested that competency will be enjoyed not only by students, but also by teachers. Because the systematic organization of the educational process is important for students and students.

Keywords: competence, communicative competence, educational process, student activities, competence, professional competence, pedagogical competence, educational effectiveness, competitive personnel, oral speech, literary language norms, worldview extension,

100 *educational system, ability, higher education system, pedagogical activity, competence, knowledge.*

Butun dunyoda amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı islohatlarning ta'lim taraqqiyotidagi eng oliy maqsadi – har bir mamlakatning iqtisodiyotini rivojlangan mamlakatlar qatoriga olib chiqish va shu orqali xalqlarning farovonligini oshirishdan iborat bo'lmoqda deya olamiz. Fan va ishlab chiqarish sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlar ilmiy texnik axborotning jadal rivojlanishi va yangilanishi bugungi kunda juda tez fursatlarda amalga oshirilmoqda. Bularning barchasi esa pedagogik faoliyat mazmunini uzviylik tamoyillari asosida muntazam rivojlanib borayotganligi bilan ifodalanadi. Zamona viy ilmiy-amaliy tajribalar pedagogik texnologiyalarining yetarli darajada aks ettirish yo'llari bilan belgilanadi. Pedagogik kadrlarni bugungi kun talablariga mos va har tomonlama bilimli qilib qurollantirish oliy ta'lim muassasalari oldida turgan eng muhum vazifalardan birdir. Kadrlarda bir qator umummadaniy, umumkasbiy va kompetentliliklarni shakllantirish juda muhim sanaladi. Shuning uchun uzuksiz oliy ta'lim muassasalarida zamona viy axborot-kommunikasiya texnologiyalariga oid fanlarni o'qitish metodikasini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi topshirig'i" PF-60- sonli Farmonida "uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamona viy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish, ta'lim va o'qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy ta'lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish, oliy ta'lim muassasalariga qabul kvotalarini bosqichma-bosqich ko'paytirish, ilmiy-tadqiqot va innovasiya faoliyatini rag'batlantirish, ilmiy va innovasiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish" kabi vazifalar belgilab olindi. Jalon mehnat bozori talablariga mos keladigan raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash oliy ta'lim tizimining eng asosiy funksional xususiyatlaridan biri hisoblanib, buni samarali amalga oshirilishi mazkur tizimda faoliyat olib borayotgan pedagoglarning kasbiy kompetentligiga bevosita bog'liq ekanligi barchamizga ma'lum. Bo'lajak mutaxassislarini har tomonlama bilimli va raqobatbardoshliligi oliy ta'limda faoliyat olib borayotgan professor o'qituvchilarga ham bog'liqidir. Chunki oliy ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatayotgan pedagog-ustozlar qanchalik mahoratli, bilimdon, malakali va tajribali bo'lsa, bir so'z bilan aytganda "o'z kasbining ustasi" bo'lsagina, «Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi»da belgilangan maqsadlarga erishish jarayoni shunchalik samarali kechishi ta'minlanadi deya olamiz. "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning 46-moddasida "Pedagog xodimlarning majburiyatlari" sifatida quyidagilar ko'rsatib o'tilgan bo'lib, bular:

ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining sha'ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro'sini hurmat qilishi;

o'quv mashg'ulotlarini sifatli o'tkazishi;

axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, o'qitish va tarbiyaning ilg'or hamda innovatsion shakllari va usullaridan foydalanishi" pedagoglar kasbiy kompetentligini takomillashtirishning institutsional asosi sifatida xizmat qilib kelmoqda. Bu borada Prezident Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Bugun har bir tarbiyachi, oliygoh professor-o'qituvchilari ta'lim va ilm-fan sohasidagi eng so'nggi ijobjiy yangiliklarni o'quv jarayonlariga tatbiq eta oladigan, chuqur bilim va keng dunyoqarash egasi, bir so'z bilan aytganda, zamonamiz va jamiyatimizning eng ilg'or vakillari bo'lishlari kerak". Shu sababli ham "Oliy ta'limni rivojlantirish konsepsiysi"da belgilangan "oliy ta'lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo'shadigan, mehnat bozorida o'z o'rmini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish"dek vazifani samarali amalga oshirish ham bevosita oliy ta'lim tizimida faoliyat olib borayotgan professor-o'qituvchilar kasbiy kompetentligining takomillashuviga bog'liq ekanligini ko'rsatadi.

"Kompetentlik" tushunchasining nazariy asoslari o'tgan asrning 60- yillarida paydo bo'lgan bo'lib, u insonning ijtimoiy hayoti va kasbiy faoliyatining bilimga asoslangan, intellektual va shaxsiy tajribasi sifatida talqin qilingan. Shu bilan birga, "Kompetentlik" tushunchasi ta'lim

sohasiga psixologlarning ilmiy izlanishlari natijasida kirib kelgan degan fikrlar mavjud. Psixologik nuqtai nazardan kompetentlik “noan’ anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o’zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o’zaro munosabatlarda yangi yo’l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to’la ma’lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik”ni anglatadi degan ta’rif ham bor. Boshqa bir manbalarda esa kompetentlik – ma’lum holat xususida to’g’ri mulohaza yuritishga imkon beradigan bilimga ega bo’lish, dalil-isbotli fikr, kishining muayyan sohada saviyasini ifoda etadigan atama. Kompetentlik shaxs xususiyatlari va holatining murakkab majmui bo’lib, ma’lum sohadagi bilim, ko’nikma va tajribani mujassamlashtirishi deyiladi. Shu bilan birga, “kompetentlik”, “kompetensiya” tushunchalari ilgari - kundalik hayotda, adabiyotlarda keng qo’llanilgan bo’lib, bir-biriga yaqin tushuncha sifatida qaralgan va uning talqini lug’atlarda keng yoritilganligini bilamiz. Masalan, “Xorijiy so’zlar izohli lug’ati”da “kompetensiya” atamasiga quyidagicha ta’rif berilgan: “kompetensiya (lotinchadan competens, competentis- qobiliyatli) – ma’lum sohada ilg’or, tajribali, bilimdon, faoliyatni mustaqil amalga oshirish yoki hal qilish huquqiga ega, o’z bilimi doirasida biror narsani yechimini hal qilishga qodir shaxs” sifatida tavsiflangan bo’lsa kompetentlik – ma’lum holat xususida to’g’ri mulohaza yuritishga imkon beradigan bilimga ega bo’lish, dalil-isbotli fikr, kishining muayyan sohada saviyasini ifoda etadigan atama. Kompetentlik shaxs xususiyatlari va holatining murakkab majmui bo’lib, ma’lum sohadagi bilim, ko’nikma va tajribani mujassamlashtirishi. Kompetentlik insonga muayyan masalalarda fikr bildirish, ma’lum qarorlarni ishlab chiqishda ishtirok etish va o’zi qaror qabul qilish imkonini beradi. Hozirgi zamон fanida kasbiy komponentlik, ilmiy, boshqaruv, pedagogik, didaktik, metodik, ijtimoiy-psixologik kompetentlikka oid tushunchalar keng qo’llanadi. Boshqaruvga oid kompetentlik ana shu sohaga taalluqli bilim va ko’nikmalarining, rahbarlik faoliyatida amaliy tajribaning mavjudligi bilan belgilanadi deyiladi.

Bugungi kunda kompetensiyalarni yanada rivojlantirish tahlili mutaxassisning asosiy kompetensiyalari va ularning komponentlari hajmini taqqoslashda tadqiqotchilar murakkablik va noaniqlarga duch kelganliklarini ko’rsatadi va bu esa o’z o’rnida, ta’lim natijasida ularning baholash uchun yondashuvlarni (mezon, tartib, vositalar) rivojlanishini qiyinlashtiradi. Shuningdek, pedagog olimlarning ilmiy tadqiqotlarida “kompetentlik” tushunchasining mazmuniga oid alohida maxsus konsepsiya mavjud emasligi ma’lum. Tadqiqotchilar tomonidan kasbiy kompetensiyalarni quyidagi komponentlarga ajratib ko’rsatilgan: mazmunli, faoliyatli va shaxsiy komponentlarga bo’lib ko’rsatilgan. Hozirgi kunda ko’plab adabiyotlarda hali kompetentli yondoshuvni tavsiflovchi konseptual apparat ishlab chiqilmagan, “kompetensiya” va “kompetentlik” atamalarini ta’riflashning turli xil talqinlari mavjud. Masalan, J.Ravenna fikriga ko’ra, “kompetensiya” tushunchasi ma’lum bir sohada muayyan bir harakatni amalga oshirishga qaratilgan maxsus bir qobiliyat sifatida tavsiflanadi, unda yuqori malakali ko’nikmalar va bilimlar, mas’uliyat va harakatlar uchun fikrlash usullari tushuniladi. Ko’rinib turibdiki, kompetensiyaning asosiy komponenti shaxsning ma’lum qobiliyatlarida ifodalangan operatsion va faoliyat komponenti sanaladi. “Kompetensiya” tushunchasining eng to’liq ta’ifi A.V.Xutorskoy tomonidan berilgan bo’lib, unda shaxsning belgilangan jarayonlar va obyektlar doirasiga nisbatan ko’rsatilgan o’zaro bog’liq fazilatlari to’plami kiritilgan va unga qarshi samarali harakat qilish kerak. Kasbiy kompetensiya - kasbiy ta’lim, tajriba va shaxsning individual qobiliyatlari darajasi, uning uzluksiz o’z-o’zini tarbiyalash va o’zini takomillashtirishga bo’lgan intilishi, biznesga ijodiy va mas’uliyatlari munosabat hisoblanadi.

Bo’lajak kadrlarga ya’ni talabalarga pedagogik kompetentlikning ilmiy-nazariy asoslari, kompetentlik tushunchasining mazmun-mohiyati va ta’limdagi ahamiyatini to’la tushuntirish. Ularni innovatsion jarayonlar tizimida o’qitish va tarbiyalashda kompetentlikka nisbatan chuqur pedagogik-psixologik tayyorgarlikni shakllantirish lozim. Shu o’rinda har bir professor o’qituvchini oldida quyidagi vazifalar mavjud:

- talabalarga pedagogik kompetentlikka doir manbalardan foydalana olishga o’rgatish va ularda pedagogik kompetentlik haqidagi tasavvurlarni hosil qilish;

- bo'lajak o'qituvchilarni zamonaviy kishilik jamiyatni oldida turgan eng muhim muammolardan biri – ta'lim-tarbiya jarayonini modernizatsiya qilishga oid istiqbolli yo'naliishi bo'lgan pedagogik kompetentlik yuzasidan nazariy bilimlar bilan tanishtirish;

- pedagogik kompetentlikka qo'yilayotgan zamonaviy talablar bilan qurollantirish;

- ta'lim-tarbiya jarayonini bola ruhiyati, uning neyropsixologik, neyropedagogik imkoniyatlarini hisobga olgan holda tashkil etish uchun zarur bo'lgan bilim ko'nikmalarini egallahlarini ta'minlash;

- pedagogik faoliyatni amalga oshirishda ijodiy va metodik savodxonlikni hamda kompetentlikka nisbatan chuqur pedagogik-psixologik tayyorgarlikni shakllantirishdan iborat. Pedagogik kompetentlik bir qator ya'ni pedagogikaga daxldor bo'lgan fanlar bilan uzviy bog'langandir. Ular pedagogika nazariyasi va tarixi, pedagogik konfliktologiya, neyropedagogika, pedagogik imidjalogiya, innovasion pedagogik texnologiyalar, yosh davrlar psixologiyasi, ijtimoiy pedagogika, pedagogik aksiologya, pedagogik psixologiya fanlaridir. Bu fanlar bir-birini to'ldiradi va shu orqali rivojlanib boradi.

Muloqot qilishda uchta o'zaro bog'liq kommunikativ, interfaol va pertseptiv komponentlarning birligi sifatida uch tomonlama yondashuv alohida ahamiyat kasb etadi (G.M.Andreeva, A.A.Bodalev, B.D.Parigin). Bunda muloqotning kommunikativ tomoni o'zida talabalarning axborotni uzatish, o'zaro ta'sir qilish interfaol tashkiliy jihatini, pertseptiv jihatni esa, ularning bir-birini idrok etishi hamda shu asosda o'rnatilgan o'zaro tushunish va hissiy aloqani namoyon etadi deya olamiz. O'qituvchining kommunikativ qobiliyatları turli tushunchalar bilan: "pedagogik mahorat", "malakaviy tavsif", pedagogik ta'lim nazariyasida o'qituvchiga kasbiy professional asoslangan talablar turli yodashuvlar bilan ifodalangan: "pedagogik mahorat", "malakaviy tavsif", "shaxsnинг professiogrammasi", "professional tayyorlik", "kasbiy professional kompetentlik" bilan ifodalangan. Umuman olganda, yuqorida sanab o'tilgan, bir hodisani tavsiflovchi pedagogik toifalar alohida mazmuniy jihatlariga ega va turli kontekstlarda qo'llaniladi. "Kommunikativ kompetentlik" tushunchasi bilan yaqin aloqador bo'lgan – "shaxsnинг kommunikativ yadrosi" tushunchasi mavjud. «Kommunikativ yadro» tushunchasi yaqinda paydo bo'lgan va ilmiy tadqiqot ishlarida zamonaviy psixolog A.A.Bodalev tomonidan birinchi marta qo'llanildi.

Ta'lim-tarbiya jarayoni murakkab, mashaqqatli, kutilmagan holatlarga boy, ammo jamiyatning zaruriy ehtiyoji hisoblanadi. Shuning uchun ham ta'lim-tarbiya tizimini yangicha ko'rinish va yangicha mazmunda amalga oshirish, dars jarayonida innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalarni samarali qo'llash orqali ta'lim samaradorligiga erishish davr talabiga aylanib bormoqdadir. Ta'lim muassasasi bitiruvchisi o'z hayotida shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va kasbiy munosabatlarga kirishishi, jamiyatda o'z o'rnini topa olishi, duch keladigan muammolarning yechimini o'zi hal etishi, eng muhim o'z sohasi va kasbi bo'yicha raqobatbardosh bo'lishini ta'minlash juda muhum hisoblanadi. Bularning barchasi pedagog kadrlar salohiyatini hal qiluvchi omillar hisoblanadi desak mubolag'a bo'lmaydi. Jamiyatdagagi barcha yangilanishlarni o'zida uyg'unlashtirish uchun shaxsiy yetuklik bilan birga kasbiy kompetentlik ham muhim ahmiyat kasb etadi. Oliy ta'lim muassasalarida talabalarning bilim samaradorligini oshirish, dars va ta'lim jarayonini yanada sifatli tashkil etish bugungi kun talabiga aylanib bormoqda. Shuning uchun:

tizimda yuqori malakali pedagoglar kadrlarni tayyorlash, ularning malakasini uzlusiz va sifatli ravishda oshirib borishga;

Ikkinchidan, ta'lim muassasalarida o'qituvchilar kasbiy qiyinchiliklari va ehtiyojlariga asoslangan uzlusiz sifatli metodik xizmatni tashkil etishga;

Uchinchidan, mavjud fan xonalari, o'quv laboratoriya asbob-uskunalar, jihozlar va kompyuter texnikasidan, umuman olganda, barcha shartsharoitlardan samarali foydalanishga;

To'rtinchidan, sifatli ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda, oliy ta'lim muassasalarini, malaka oshirish institutlari va umumta'lim maktablari hamkorligida ilg'or ish tajribalarini amaliyotga joriy etishga;

Doimo katta ahmiyat qaratmog'imiz va hamisha diqqat markazimizda bo'lmog'i zarurdir. Shu o'rinda bo'lajak pedagog kadrlarimizning kasbiy kompetentligi maktabgacha va maktab

ta'limi tizimida faoliyat olib borayotgan o'qituvchilarning ham kasbiy kompetentligi va mahoratiga bevosita bog'liqdir.

Xulosa o'rinda shuni ta'kidlashimiz mumkinki, dunyodagi rivojlangan mamlakatlar singari mamlakatimiz ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan kadrlar ham ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayotda yuqori bilimga ega bo'lishlari hamda har tomonlama kompetentli bo'lishlari zarur. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yutuqlaridan foydalanish, o'z navbatida mavjud to'plangan ma'lumot, axborotlar ustida ishslash, ya'ni ularni tahlil qilish, tushuntirish hamda undan foydalanish yoki foydalanmaslik xaqida qarorlarni mustaqil qabul qilishi muhum. Shu bilan birga talabalarning kasbiy va pedagogik kompetentligini rivojlantirish va unga ta'sir etuvchi omillarni yaxshi bilish lozim. Kompetentli yondashuvining yana bir o'ziga xos tomoni globallashuv jarayonida o'qituvchining o'z ustida ishlashi, axborot kommunikatsiya texnologiyalari so'nggi yangiliklarini muttasil o'zlashtirib borishi kerak bo'ladi. Yuqorida keltirilgan fikrlarni tahlil qiladigan bo'lsak, kasbiy kompetentlik – o'qituvchining shaxsiy sifatlari, faoliyati, maqsadi va vazifalarini belgilash, o'z navbatida ularning qatoriga zamonaviy bilimlarni egallash va qo'llay olish, o'ziga xos tadqiqotchilik qirralarini faoliyati jarayonida ko'rsata bilishi tushuniladi. Pedagoglarning kasbiy kompetentligi – uning kasbiy bilim ko'nikmasi, shaxsiy sifatlari, zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llay olish qobiliyati va professional tayyorlarligini belgilovchi sifat ko'rsatkichidir” – deb, ifodalash maqsadga muvofiq bo'ladi. Bir so'z bilan aytganda bugungi kunda har bir talaba mutaxassisligiga mos holda kompetentlikka ega bo'lishi talab qilinadi. Shuning uchun maqsad va harakatni uyg'unlashtira olishi davr talabidir.

Foydalilanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni. 2017-yil 7-fevral.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son “2022 — 2026-YILLARGA MO'LJALLANGAN YANGI O'ZBEKISTONNING TARAQQIYOT STRATEGIYASI TO'G'RISIDA”
3. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. – T.: “O'zbekiston” nashriyoti, 2000-y. – 352 b. 76-77 betlar.
4. <https://nrm.uz> 1-2-bet.
5. Rasulov R., Mo'ydinov Q. Nutq madanyati va madanyati san'ati. O'quv qo'llanma. –T., 2010. 28-30-b.
6. Nematjonova Y. O'qituvchi shaxs siymosi. Referat. 2016-yil. 2-6-betlar.
7. Jo'rayev B.O. Bola- olam bezagi. Pedagoglar uchun uslubiy qo'llanma.
8. Qosimova K., S.Matchonov, X.G'ulomova, Sh. Yo'ldosheva, Sh. Sariyev. Ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent. “Nosir” nashriyoti. 2009 y. 71-72-betlar.
9. Tillayeva G. Ijtimoiy muhit va yoshlar tarbiyasi.-T.: Falsafa va huquq instituti, 2009.
10. Turg'unov S.T., Doniyorov B.X., Umarilieva M.A., Shodmonova Sh.S., Turg'unova Sh.M., Tojiboyeva N.M. O'qituvchilarning kasbiy mahorat va kompetentligini rivojlantirish.-T.: Sano-standart, 2012.
11. Asadov Y.M. Ta'limga kompetensiyaviy yondashuv.-T.: “Maktab va hayot” jurnalı. N1 (101), 2014.
12. Akbarova N. "Interfaol darslarni tashkil etishda o'qituvchilar kommunikativlik va tashkilotchilik kompetensiyalarini hisobga olish" Ta'lim texnologiyalari jurnalı (2015-yil N 5).
13. Umarov B.M. Psixologiya. “Voris-nashriyoti” Toshkent-2012.
14. T.N.Qori Niyoziy nomidagi ilmiy –tadqiqot institute. Umumiyl o'rta ta'lim tizimida o'quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari. Toshkent, 2015. 7-20-betlar.